

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104


14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farhod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farhod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIY TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xasanov Sharofidin,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
e-mail: sharofidinxasanov@gmail.com

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOYIY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099597>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan yoshlarni ijtimoiy hayotga reintegratsiyalash masalasi xorijiy davlatlar amaliyoti asosida yoritilgan. Tadqiqotda AQSh, Kanada, Angliya, Fransiya va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, tashkilotlarning o'zaro hamkorligi, bir-biriga bog'liqligi va individual rehabilitatsiya namunalari o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Ushbu mamlakatlarda jazo muddatini o'tab qaytgan yoshlar bilan ishlashda ruhiy ko'mak, oilaviy munosabatlarni saqlab qolish, ta'lim va kasbiy ko'nikma berish, bandligini ta'minlash hamda turli milliy dasturlarning amalga oshirilishi asosiy yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, AQSh da individual kuzatuv xizmatlari va turli ijtimoiy dasturlar, Kanadada reintegratsiya rejalarini qo'llab-quvvatlovchi markazlar, Angliyada oilaviy munosabatlarni saqlab qolishga qaratilgan dasturlar, Fransiya va Germaniyadagi turli ijtimoiy hayotga moslashishga ko'mak beruvchi assotsiatsiya, markazlar va hukumat – jamoatchilik sherikchiligi keng rivojlangan. Maqola tahlillari asosida jazo muddatini o'tab qaytgan yoshlarni reintegratsiyalash borasida tizimimiz uchun bir qator quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: yoshlarni jamiyatga qayta moslashtirish jarayonida davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish, bunday toifadagi yoshlar uchun uzoq muddatga mo'ljallangan turli ijtimoiy dasturlarni joriy etish, kasbiy tayyorgarlik markazlarini zamonaviylashtirish va ular tomonidan takroriy jinoyatlar sodir etish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan barqaror profilaktik tizimni shakllantirish.

Kalit so'zlar: xorij, ijtimoiy, oila, ruhiy, jinoyat, jamiyat, huquqbuzar, munosabat, mahkum, dastur.

Хасанов Шарофидин,
базовый докторант 1 курса
Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова,
e-mail: sharofidinxasanov@gmail.com

РЕИНТЕГРАЦИЯ МОЛОДЕЖИ, ВЕРНУВШЕЙСЯ ИЗ УЧРЕЖДЕНИЙ ИСПОЛНЕНИЯ НАКАЗАНИЙ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос реинтеграции молодёжи, возвращающейся из учреждений исполнения наказаний, в социальную жизнь на основе опыта зарубежных государств. В исследовании проанализированы реформы, осуществляемые в этой сфере в таких развитых странах, как США, Канада, Англия, Франция и Германия, а также особенности взаимодействия организаций, их взаимосвязанность и индивидуальные модели реабилитации. В этих странах основными направлениями работы с молодыми людьми, завершившими срок наказания, признаются психологическая поддержка, сохранение семейных отношений, предоставление образования и профессиональных навыков, обеспечение занятости, а также реализация различных национальных программ. Особенно широко развиты индивидуальные службы наблюдения и различные социальные программы в США; центры поддержки планов реинтеграции в Канаде; программы, направленные на сохранение семейных отношений, – в Англии; а также ассоциации, центры и партнёрство государства и общественности, содействующие адаптации к социальной жизни, – во Франции и Германии. На основе анализа статьи можно предложить ряд следующих рекомендаций для нашей системы по реинтеграции молодёжи, отбывшей наказание: усилить тесное сотрудничество между государственными и негосударственными организациями в процессе повторной адаптации молодёжи к обществу; внедрить различные долгосрочные социальные программы для данной категории молодёжи; модернизировать центры профессиональной подготовки и сформировать устойчивую профилактическую систему, направленную на снижение вероятности повторного совершения преступлений.

Ключевые слова: зарубежный опыт, социальный, семья, психологический, преступление, общество, правонарушитель, отношения, осуждённый, программа.

Khasanov Sharofidin,

basic doctoral student of the 1st year
of the Sharof Rashidov Samarkand State University
e-mail: sharofidinxasanov@gmail.com

**REINTEGRATION OF YOUTH RETURNING FROM PENAL INSTITUTIONS:
INTERNATIONAL EXPERIENCE****ABSTRACT**

This article examines the issue of reintegrating young people returning from correctional institutions into social life based on the practice of foreign countries. The study analyzes the reforms being implemented in this area in developed countries such as the USA, Canada, England, France, and Germany, as well as the cooperation among organizations, their interconnection, and the specific features of individual rehabilitation models. In these countries, psychological support, maintaining family relations, providing education and professional skills, ensuring employment, and implementing various national programs are recognized as the main directions in working with young people who have completed their sentences. In particular, individual supervision services and various social programs in the USA; centers supporting reintegration plans in Canada; programs aimed at preserving family relationships in England; as well as associations, centers, and government–public partnerships that assist in adapting to social life in France and Germany are widely developed. Based on the analysis of the article, several recommendations can be proposed for our system regarding the reintegration of young people who have served their sentences: strengthening close cooperation between governmental and non-governmental organizations in the process of readapting youth to society; introducing various long-term social programs for this category of young people; modernizing vocational training centers; and forming a stable preventive system aimed at reducing the likelihood of repeated offenses.

Keywords: foreign experience, social, family, psychological, crime, society, offender, relationship, convict, program.

KIRISH

Hozirgi shiddat bilan o'sib borayotgan jamiyatimizda jazoni o'tab qaytgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni reintegratsiyalash masalasi davlat siyosatida muhim o'rin egallaydi. Chunki yoshlarning jinoyat yo'liga kirib qolishi, nafaqat shaxs taqdiriga, balki jamiyat barqarorligi va xavfsizligiga ham to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, reintegratsiyalash jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etish, ayniqsa jazoni o'tab chiqqan yoshlarning huquqiy, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishi har bir taraqqiy etgan mamlakat uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy jamiyatda har bir mamlakatlar o'z tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqib, reintegratsiyaning o'ziga xos tajribasiga ega. Dunyo olimlari jazoni ijro etish muassasalaridan qaytganlarni ijtimoiy hayotga reintegratsiyalash keng qamrovli yondashuv ekanligi, ya'ni ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, ishga joylashish imkoniyatlarini oshirish, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni tiklash kabi bir nechta omillarni uyg'unlashtirish yuqori samara berishini aniqlaganlar. Tadqiqotlarimiz davomida reintegratsiyalash tizimi eng rivojlangan davlatlar misolida ayrim jihatlarni batafsil o'rganamiz.

METODOLOGIYA

Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan yoshlarni ijtimoiy hayotga reintegratsiyalash jarayonlarining xorij tajribasi o'rganishda zamonaviy sotsiologik tadqiqot metodlari, statistik tahlil usullari hamda transformatsion yondashuv asos qilib olindi. Ushbu bo'limda tadqiqotning metodologik asosi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, asosiy gipotezalar, ma'lumotlar manbai va xorijda ishlatilgan metodlar tizimli ravishda yoritiladi.

ASOSIY QISM

AQSH da jinoyat sodir etgan va jazoni o'tab qaytgan yoshlarni jamiyatga qayta moslashtirish masalasi qonunchilik, ta'lim, mehnat bozori va ijtimoiy xizmatlar kabi bir qancha sohalar kesishadigan murakkab tizimlardan biridir. Mamlakatda yiliga minglab yoshlar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilib, jamiyatga qayta moslashuv jarayonida turar joy, ta'lim, ish topish kabi turli huquqiy, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga duch kelishadi.

AQShda yoshlar orasidagi jinoyatchilik masalasi ijtimoiy, iqtisodiy va maishiy omillar bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida o'zini ko'rsatadi.

“Yosh jinoyatchilarni “superhasharotlar” yoki “psixopat bo'lib rivojlanayotganlar” sifatida tasvirlashning eng zararli shakllari 1990-yillar o'rtalarida paydo bo'ldi, bu AQShda yoshlar orasidagi zo'ravonlik hozirgi zamonning eng yuqori darajasiga yetgan davrdan keyin sodir bo'lgan” [1].

Jumladan, 1990-yillar o'rtalari AQSh da yoshlar orasida zo'ravonlik jinoyatlari nihoyat darajada ko'payib ketgan davr bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari va ba'zi ilmiy va ijtimoiy muhokamalarda yosh huquqbuzarlarni “superhasharotlar” yoki “psixopat bo'lib rivojlanayotganlar” sifatida bayon qilish – o'sha davrda paydo bo'lgan va jamiyatda keng tarqalgan ijtimoiy stereotiplardan biri edi. Bunday tasvirlashning zararli jihati shundaki, u yoshlar haqidagi umumiy tushunchani faqat qonunbuzarlik, zo'ravonlik yoki jinoyatchilikning salbiy oqibatlari bilan bog'ladi. Natijasi o'laroq, yoshlarning rivojlanish jarayonlari, ijtimoiy muhit, oilaviy va psixologik omillari nazardan chetda qoldirildi hamda ularning jamiyatga qayta moslashuvi, tarbiya qilinish imkoniyatlari ham cheklandi. Bunday yondashuvning ijtimoiy oqibatlari ham sezilarli darajada salbiy bo'ldi. AQSh da o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatadiki, yoshlar haqidagi bunday keskin va noto'g'ri qarashlardan ko'ra, ularning rivojlanish bosqichlarini, turli psixologik, ijtimoiy shart-sharoitlarni va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda harakat qilish ko'proq samara beradi.

AQSh dagi Yoshlar huquqbuzarliklari va jinoyatchilikning oldini olish idorasi tomonidan 2017-yil avgust oyida e'lon qilingan “Yoshlarning qayta ijtimoiylashuvi” nomli maqolada keltirilishicha, “Quyida yoshlarning jamiyatga qayta joylashishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan to'rtta aniq ehtiyoj tavsiflanadi:

1. Ruhiy salomatlik va modda qo'llanishi bo'yicha davolash;
2. Oilaviy ishtiroki va qo'llab-quvvatlash;
3. Maqsadli ta'lim va ishga joylashtirish dasturlari;
4. Turli turar-joy bilan ta'minlash” [2].

Jazoni o'tab qaytgan yoshlarning qayta ijtimoiylashuvi jarayonida ularning samarali moslashishi uchun turli sohalaridagi ehtiyojlarni hisobga olish juda muhim. Ushbu jarayonda to'rt asosiy ehtiyoj ayrim tahlilchilar va amaliyotdagi tajribalar orqali ilgari suriladi:

1. Ruhiy salomatlik va moddalardan foydalanish bo'yicha davolash

Yosh huquqbuzarlar orasida ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar va turli ta'sir ko'rsatuvchi moddalarni qabul qilish holatlari keng tarqalgan. Bunday holatlar qiyin vaziyatlarda stressga tushishga, xulqning o'zgarishiga va qonun buzishga bo'lgan maylni oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu boisdan yoshlarga psixologik maslahatlar, psixoterapiya, turli moddalar qo'llashni kamaytirish bo'yicha dasturlar va davolash imkoniyatlarining berilishi reintegrasiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv nafaqat huquqbuzarlikni kamaytirishga, balki yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytirishga ham yordam beradi.

2. Oilaviy ishtiroki va qo'llab-quvvatlash

Oila – yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Jazoni o'tab qaytgan yoshlar oila a'zolarining ruhiy ko'magi, ularning iliq munosabatlari orqali jamiyatga oson moslashadi. Oilaviy dasturlar yoki maslahatlar yoshlarga tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy ko'mak berib, qiyin vaziyatlarni yumshatadi. Bu omil ijtimoiy oqibatlarni barqarorlashtirishda ham muhim, chunki yoshlarning moslashuv jarayonidagi samaradorligini oshiradi.

3. Maqsadli ta'lim va ishga joylashtirish dasturlari

Yoshlar uchun maqsadli ta'lim, kasbiy ko'nikmalarini oshirish dasturlari ularni mehnat bozoriga tayyorlaydi va iqtisodiy holatini yaxshilash imkonini beradi. Turli ta'lim dasturlari va kurslari, stajirovka imkoniyatlari yoshlarni ijtimoiy faoliyatga qo'shadi, qonunbuzarlikka qaytish xavfini kamaytiradi.

4. Turar-joy bilan ta'minlash

Turar-joy muammosi ham yoshlarni reintegrasiyalashda muhim omil hisoblanadi. Barqaror uy-joyga ega bo'lish yoshning ijtimoiy muhitdagi barqarorligini ta'minlaydi, jamiyatdagi aloqalarini mustahkamlaydi va xulq-atvorini yaxshilashga yordam beradi. Bu ayniqsa, kam ta'minlangan yoshlar uchun jamiyatdagi xavfsizlik va ruhiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy sharoit hisoblanadi.

Jazoni o'tab qaytgan yoshlarni jamiyatga reintegrasiyalashda ruhiy salomatlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va ishga joylashtirish hamda turar-joy masalalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularning har biri yoshlarning barqaror rivojlanishi uchun zarurdir.

Bu borada AQSh da bir qator milliy dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, yoshlarning ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham yo'naltirilgan.

- Project Build. Bu dastur qo'lga olingan yoshlarga jamiyatda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar — jinoyat guruhlari, jinoyatchilik va narkotik moddalar kabi — bilan kurashishda yordam berish uchun ishlab chiqilgan [3].

- Multisystemic Therapy–Family Integrated Transitions (MST–FIT). Bu dastur jinoyat sodir etgan va shu bilan birga psixik salomatlik va modda qo'llanishi bilan bog'liq muammolari bo'lgan yoshlarga individual va oilaviy integrasiyalangan xizmatlarni taqdim etadi [4].

- Operation New Hope. Dastur noto'g'ri ijtimoiylashgan yoshlar bilan ishlaydi va ularni sog'lom qaror qabul qilishga o'rgatish uchun turli turmush va hayot ko'nikmalari usullarini integrasiyalangan ta'limiy yondashuvda qo'llaydi [5].

- Wayne County (Mich.) Second Chance Reentry (WC-SCR) Program [6].

Bu yoshlarning jinoyatchilikka qayta kirib kelishlarining oldini olish va jamiyatga qayta moslashuv jarayonini rag'batlantirish maqsadida tuzilgan, ilmiy asoslangan dastur.

Yuqoridagilardan AQSh da reintegrasiya dasturlari faqatgina jinoyatchilikni kamaytirish uchun emas, balki yoshlarni barqaror hayotga yo'naltirishni nazarda tutgan ko'p qirrali tizim sifatida shakllanib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Kanadada jazoni o'tab qaytgan yoshlarning jamiyatga qayta moslashuvi – bu huquqiy, ijtimoiy va psixologik omillarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali jarayondir. Yoshlar reabilitatsiyasi mamlakatdagi jamoat xavfsizligi, jinoyatchilik darajasi va ijtimoiy barqarorlikka to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

“2022-2023 yilda to‘liq shartli ozodligi bekor qilingan oldin qamalgan shaxslar orasida, taxminan 85% qamoqqa qaytarilgan, chunki ular shartli ozodlik shartlarini buzgan, masalan: narkotik/spirtli ichimliklardan foydalanmaslik, muayyan shaxslar bilan aloqa qilmaslik, geografik chegaralarda qolish kabi talablarni buzish. Yangi jinoyat sodir etish ularning qamoqqa qaytarilishining asosiy sababi emas. So‘nggi o‘n yilda bu tendensiya taqriban barqaror bo‘lib kelmoqda” [7].

Ushbu statistika Kanadada shartli ravishda ozodlikka chiqarilgan, ammo keyin to‘liq shartli ozodligi bekor qilingan shaxslar o‘rtasidagi muhim yo‘nalishni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotga ko‘ra, bunday shaxslarning taxminan 85 foizi qayta qamoqqa qaytarilgan, lekin ularning katta qismi boshqa jinoyatlar sodir etgani uchun emas, balki shartli ozodlik uchun belgilangan tegishli talablarga amal qilmagani uchun jazoni ijro etish muassasalariga qaytarilgan.

Bunday talablarga quyidagilar kiradi:

- giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklardan foydalanmaslik;
- muayyan shaxslar bilan muloqot qilmaslik;
- belgilangan hududiy chegaralardan chiqmaslik;
- nazorat organlariga o‘z vaqtida xabar berish kabi shartlar.

Ushbu holatlarning aksariyati shartli ozodlik shartlarining buzilishi bilan bog‘liq. Bu shuni anglatadiki, shaxslarning jazoni ijro etish muassasalariga qaytarilish holatlari qayta jinoyat sodir etish (retsdivizm) bilan emas, balki jamiyatga qayta moslashuv jarayonida yuzaga kelgan muammolar, huquqiy, ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy to‘siqlar bilan bog‘liq.

Muhim jihati esa, ushbu barqarorlikning so‘nggi o‘n yillikda saqlanib qolishi jinoyatchilik darajasidagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq emas. Bu erda shartli ozodlik bilan bog‘liq bo‘lgan talablar va ularni amalga oshirish tizimi, jazoni o‘tab qaytgan yoshlarni reintegratsiyalash darajasi, ularni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining samaradorligi kabi omillar bu jarayonga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, ushbu holat Kanadada bu boradagi muammolarni uzoq muddatli va tizimli yo‘nalishlar orqali hal etish zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirda Kanadada bu sohada aniq va samarali qadamlar tashlanmoqda: yoshlarni jazoni o‘tab chiqqandan keyin jamiyatga reintegratsiyalash uchun turli tadqiqotlar o‘tkazilib, davlat va nodavlat tashkilotlar birgalikdagi dasturlarini amalga oshirmoqdalar. Kelli E. Morton Burgon, Kimberli Byornett va Jo-Ann Kretienlarning 2008 yilda chiqarilgan “Yoshlarning qamoq va jamiyatga qayta qo‘shilish tajribasi haqidagi fikrlari” nomli maqolasida shunday deyiladi: “Ideal holatda, reintegratsiya rejasi yoshlar qamoqda bo‘lgan vaqtda tuziladi, shunda ular ozodlikka chiqqanlarida jamiyatga qaytishlariga yordam beradigan tayyor rejaga ega bo‘lishadi va kelgusida jinoyat sodir etishdan saqlanishlari mumkin bo‘ladi” [8].

Ya‘ni yoshlarning qayta ijtimoiylashuv rejasi ular jazo muddatini o‘tayotgan paytda tuzilishi kerak. Bu jarayonda tegishli mutaxassislar yoshlarning shaxsiy ehtiyojlari, ta‘lim va kasbiy salohiyati, ruhiy salomatlik holati, oilaviy va ijtimoiy muhiti kabi shart-sharoitlarni hisobga olib, ularni jamiyatga reintegratsiyalash uchun har bir shaxs uchun alohida dastur ishlab chiqadilar va shu tarzda tuzilgan reja yoshlarga aniq va mukammal yo‘l xaritasini taqdim qiladi, bu esa ularning jamiyatga moslashuvini yengillashtiradi.

Bundan tashqari, bu kabi rejali dasturlar yoshlarning jinoyatga moyilligini, kelgusida ular tomonidan jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytiradi. Chunki ular jazoni o‘tayotgan davrida kelgusi hayotlarida qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishadi. Bu esa reintegratsiya rejasining faqat jamiyatga moslashuv jarayonini samarali qilish emas, balki qayta jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Angliyada jinoyat sodir etib, jazo muddatini o‘tab qaytgan yoshlarni reintegratsiyalash masalasi siyosatning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yosh mahkumlarning jazo muddatini o‘tab bo‘lganidan keyingi taqdiriga faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning umumiy mas‘uliyati sifatida e‘tibor qaratiladi. Shu bois, ularning jamiyatga qayta moslashuvida psixologik yordam, malaka oshirish kurslari, ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

“Panuccio va boshqalar (2012) yoshlar qayta jamiyatga moslashish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan psixologik jarayonlarni o'rgandilar. Ularning tadqiqoti natijalari shundan dalolat berdiki, yoshlar qayta jinoyat sodir etishdan to'xtash uchun motivasiyaga ega bo'lishi lozim, shunda ular mavjud boshqa imkoniyatlardan to'liq foydalanishlari mumkin” [9].

Bir guruh tadqiqotchilar 2012-yilda yoshlarning jamiyatga qayta moslashuvi jarayonida turli psixologik omillarning ham roli muhim ekanligini o'rgandilar. Ularning xulosasiga ko'ra, jazo muddatini o'tab chiqqan yoshlarni reintegrasiyalash faqatgina tashqi imkoniyatlar, jumladan ta'lim, bandligini ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Bunday yoshlarning psixologik holati, motivasiyasi hamda shaxsiy dunyoqarashi ham ularning muvaffaqiyatli moslashishiga bevosita ta'sir qiladi. Jazo muddatini o'tab chiqqan yoshlarning yana yangi jinoyatlar sodir etishdan tiyilishlari uchun ularga kuchli ichki motivasiya lozim. Bu motivasiya yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchi, o'zini shaxsiy rivojlantirish istagi hamda mavjud imkoniyatlardan foydalana olish qobiliyatining qay darajada ekanligi bilan bog'liq. Agar motivasiya yetishmasa, ularning turli ijtimoiy dasturlardan foydalanish imkoniyati yo'qoladi va bu qayta jinoyat sodir etish ehtimolini oshirishi mumkin.

Shuningdek, yoshlarning oila a'zolari, qarindoshlari, do'stlari bilan mustahkam munosabatlari ularning o'zini qo'llab-quvvatlanadigan muhitda his qilishiga yordam beradi, natijada ularning ijtimoiy faolligi oshadi.

Bu tadqiqot yoshlar reintegrasiyasida psixologik omillarning o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi hamda ular tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida motivasiyani mustahkamlovchi turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi.

2004-yil fevralda e'lon qilingan “Yo'qolgan avlod: mahbusdagi yoshlar tajribalari” nomli maqolada shunday deyilgan: “Oilalar bilan munosabatlarni saqlash sobiq mahbuslarni qayta jinoyatga qo'l urmaslikka yordam berishi va ularning jamiyatga qayta moslashishiga ko'maklashishi mumkin” [10].

Oilaviy munosabatlarni saqlab qolish, jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashuvida, ularning yangi jinoyatlar sodir etish ehtimolini kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Ozodlikka chiqqach, shaxsning hayotidagi oila bilan bog'liqlik hissi, oila a'zolari bilan yaqin va ijobiy munosabatlar unga nafaqat ruhiy quvvat beradi, balki shaxsda o'zini qo'llab-quvvatlangan, oilasiga, jamiyatga kerakli inson sifatida his qilish tuyg'usini ham beradi. Bu esa o'z navbatida ularni qonunlarga rioya qilishga rag'batlantiradi va ularning jinoyat sodir etishga moyilligini kamaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilasi bilan mustahkam munosabatda bo'lgan mahkumlar jamiyatda o'z o'mini topish uchun faolroq, mustaqilroq harakat qiladi. Bu esa ularning o'z hayotini rejalashtirish va ijtimoiy dasturlardan samarali foydalanish qobiliyatini oshiradi. Oila bilan bog'liqlik hissi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni mustahkamlash maqsadida maxsus dasturlar va tadbirlar tashkil etilishi, reintegrasiya jarayonidagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Umuman olganda, Angliyadagi tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlarning jamiyatga reintegrasiyasi faqat qonunchilik, nazorat vositalari orqali emas, balki ularning psixologik holati, oilaviy va ijtimoiy aloqalari, ta'lim va kasbiy imkoniyatlari bilan birgalikda qo'llab-quvvatlanganda samarali bo'ladi. Angliyadagi turli ijtimoiy dasturlar faqat ozodlikka chiqqandan keyingi ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki ularning ichki ruhiy holati, shaxsiy qarashlarini, oila va jamiyatdagi munosabatlarini ham inobatga oladi. Bu tajriba faqat jazo muddatini o'tab chiqqan yoshlarning kelgusi hayotini yaxshilash bilan cheklanmay, jamiyatdagi xavfsizlikni ta'minlash va takroriy jinoyatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Fransiyada jinoyat sodir qilganligi ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar ijtimoiy hayotga qaytganlaridan so'ng ularning reintegrasiyasi bugungi kundagi adliya tizimida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon nafaqat sobiq mahkumning shaxsiy taraqqiyoti va muammolarini hal qilish, balki jamiyat uchun xavfsizlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Fransiyadagi turli xil ijtimoiy dasturlar, shu jumladan huquqiy, psixologik yordam, ish bilan ta'minlash, qayta o'qitish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali ularning jamiyatga qayta moslashuvi rag'batlantiriladi.

Fransiya Adliya vazirligi statistika xizmati tomonidan 2021-yil iyul oyida Frederik Kornyo va Mariann Juyyarlar muallifligida e'lon qilingan “Qamoqdan chiqqanlarning qayta jinoyat sodir

etishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'ldirish va tushunish" nomli maqolasida keltirilishicha, 2016-yilda jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxslarning 96 % erkaklar bo'lib, ozodlikdan mahrum qilingan paytda ularning yarmi 30 yoshdan kichik bo'lgan yoxud 14% ida ularni qamoqqa olib kelgan hukmdan oldin sudlanganlik haqidagi hech qanday qayd bo'lmagan.

"Boshqa omillar bir xil bo'lganida, qamoqqa kirish vaqtida yosh bo'lgan shaxslarda qayta jinoyat sodir etish xavfi yuqoriroq bo'ladi va avvalgi sudlanganliklar soni ortishi bilan bu xavf yanada kuchayadi. Qamoqda aniqlangan psixologik yoki psixiatrik muammolar ham qayta jinoyat sodir etish xavfini oshiradi. Aksincha, qamoqxona ichida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qayta jinoyat sodir etish ehtimolini biroz kamaytiradi" [11].

Fransiyada sobiq mahkumlarni reintegratsiyalash jarayonining muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, bu ozodlikka chiqqan shaxsning shaxsiy taraqqiyoti va ruhiy holati bilan bog'liq, ya'ni muassasadagi hayot tarzi, cheklovlar va jamiyatdan ajratib qo'yilishi uning ruhiy va kasbiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bunday toifadagi yoshlarga turli imkoniyatlarning taqdim etilishi ularning o'zini anglashi va hayotga moslashishida muhim o'rin tutadi.

Ikkinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslarning reintegratsiyasi jamiyat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamoatchilik xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri, ular tomonidan jinoyat sodir qilish ehtimolini kamaytirishga erishish. Shu nuqtai nazardan, turli ijtimoiy dasturlar ozodlikka chiqqan shaxslar o'z hayotini qonun doirasida qayta qurishiga ko'maklashadi.

Fransiyada bu maqsadga yo'naltirilgan turli loyihalar mavjud. Ular ilgari jinoyat sodir qilgan shaxslarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish va ijtimoiy hayotdagi turli to'siqlarni yengib o'tishiga yordam beradi.

Mahbuslar va qamoqdan chiqqan shaxslarga yordam beruvchi asosiy milliy assosiatsiyalar:

Giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha milliy mutaxassislar assosiatsiyasi (ANIT) va "Vie Libre" assosiatsiyasi: birinchisi giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha ixtisoslashgan davolash markazlari orqali penitensiar muassasalarda ish olib boradi. Ikkinchisi esa alkogolizmga chalingan shaxslarga sog'ayish va jamiyatga qayta moslashish yo'lida ko'maklashadi.

Qamoqxona tashrifchilari milliy assosiatsiyasi (ANVP): bu tashkilot ko'ngillilarni birlashtiradi. Ular izolyasiyada qolgan erkaklar, ayollar yoki voyaga yetmagan mahbuslar bilan uchrashishga tayyor. Tashriflar "advokatlar uchun mo'ljallangan suhbat xonalari"da bo'lib o'tadi va psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

AUXILIA va CLIP: birinchi assosiatsiya masofaviy ta'lim orqali mahbuslarga kasbiy va ijtimoiy qayta moslashishga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi. Ikkinchisi ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni informatika va dasturlash asoslariga o'rgatishni maqsad qiladi.

CIMADE: chet elliklarni qabul qilish bo'yicha migratsiya markazi bo'lib, ozodlikdan mahrum etilgan va Fransiya hududidan chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror bilan yuzlashgan har qanday shaxsga yuridik yordam ko'rsatadi.

Courrier de Bovet: 1950 yilda tashkil etilgan ushbu assosiatsiya mahbuslarga xat almashinuvi orqali ma'naviy yordam ko'rsatishni maqsad qiladi.

Fransiya Qizil Xochi: u Adliya tizimi nazorati ostidagi shaxslar bilan, qamoqda ham, ozod sharoitda ham ishlaydi: qamoqdan chiqqanlarni kutub olish va kuzatib borish, sog'liqni saqlash bo'yicha ma'rifat, savodsizlikka qarshi kurash, birinchi tibbiy yordam ko'nikmalarini o'rgatish, nochorlikka qarshi yordam, telefon orqali tinglash va qo'llab-quvvatlash xizmati.

Qamoqxona va adliya masalalarida fikr-mulohaza va amaliyot assosiatsiyalari federatsiyasi (FARAPEJ): bu federatsiya qamoqdan chiqqan shaxslar, mahbuslar va ularning oilalari bilan turli faoliyatlarni amalga oshiruvchi assosiatsiyalarni birlashtiradi. Shuningdek, u mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilib, qamoqqa olishga alternativ javo choralarini joriy etishni rag'batlantiradi.

Qabul qilish va ijtimoiy reabilitatsiya bo'yicha milliy assosiatziyalar federatsiyasi (FNARS): 700 dan ortiq assosiatziya va davlat muassasalarini birlashtiradi, ular orasida Adliya tizimi nazoratidagi shaxslarga xizmat ko'rsatadigan turar joy markazlari ham bor.

Qamoqdagi shaxslar oilalari va do'stlarini kutib olish uylarining mintaqaviy federatsiyasi (FRAMAFAD): bu federatsiya qamoqxonada yaqinini ko'rish uchun kelgan shaxslarga yordam va qo'llab-quvvatlash ko'rsatadigan assosiatziyalarni birlashtiradi va qo'llab-quvvatlaydi.

"Bolalar-ota-onalar aloqalari" federatsiyasi: bir necha Relais-enfants-parents markazlari farzand va qamoqdagi ota-onaning aloqa uzilib qolmasligi uchun ishlaydi: bolalarni uchrashuv xonalariga kuzatish, bolalar uchun maxsus xonalarni tashkil etish, tarbiyaviy navbatchiliklar, qamoqdagi onalar yoki otalar uchun suhbat guruhlar va hokazo.

Qamoqxonalarda ta'lim beruvchi talabalar milliy guruhi (GENEPI): u ko'ngilli talabalar (oliy ta'lim muassasalari talabalari) ishtirokida qamoqxonalarda ta'lim berish faoliyatini tashkil etadi.

"O'qish – bu hayot" assosiatziyasi: bu assosiatziya qamoqxonalarda kutubxonalar tashkil etgan va mahbuslarni kutubxonachi sifatida tayyorlaydi.

Katolik yordam xizmati: u 43 ta mahalliy jamoaga ega bo'lib, mahbuslar va ularning oilalariga yordam ko'rsatishga ixtisoslashgan. Uning bo'limlari qamoqxonalarda kambag'allikka qarshi kurashish, moddiy va moliyaviy yordam (kiyim-kechak va boshqalar) ko'rsatish bilan shug'ullanadi [12].

Fransiyadagi tajribaga butun dunyoda jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan shaxslarni reintegratsiyalashda samarali model sifatida qaralishi mumkin.

Germaniya jazoni ijro etish muassasalarida ijtimoiy terapiya bo'limlari orqali mahkumlarga ruhiy ko'mak, kasbiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda ijtimoiy ko'nikmalar berish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Germaniya tajribasida mahkumlarning ijtimoiy va kasbiy bandligini ta'minlashga alohida urg'u berilgan. Dr. Luts Klyayn 2019 yil iyun oyida e'lon qilingan "Yosh mahbuslarni mehnat bozoriga integratsiya qilish" deb nomlangan maqolasida shunday degan: "Jinoyat sodir etgan shaxslar ishga ega bo'lsalar, ular kamroq hollarda qamoqqa olinadi; agar qamoqda bo'lgan paytda ish topishsa, ularni ko'proq hollarda muddatidan oldin ozod qiladilar; ish bilan band bo'lgan qamoqdan chiqqan shaxslarga esa kichik huquqbuzarliklar uchun yaxshiroq munosabatda bo'linadi!" [13].

Bu fikr jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq holatini tahlil qilishga oid kuzatuvlardan kelib chiqqan. Uning asosiy g'oyasi sifatida, shaxsning ish bilan bandligi, uning qonunga rioya qilishini ta'minlashi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilmoqda.

XULOSA

Avvalo, ishga ega bo'lgan shaxslar qamoqqa kamroq tushadi. Ya'ni mehnat bozorida faol bo'lgan shaxslar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'ladi, ularning oilaviy munosabatlari, ijtimoiy aloqalari barqaror bo'ladi. Shu sababdan, ularning ijtimoiy normalarni buzish ehtimoli kamayadi. Ishsiz shaxslar esa asosan moliyaviy qiyinchiliklar va ijtimoiy munosabatlar tufayli psixologik bosimga duch keladi, bu esa ularni qayta jinoyat sodir etishga moyil qiladi.

Ikkinchidan, mahkum ish bilan band bo'lganida, u mas'uliyatni his etadi, kundalik hayotida tartib va samarali faoliyatni saqlaydi. Shu bois, unga muddatidan oldin ozod qilish imkoniyati ko'proq taqdim etiladi, bu ham uning motivatsiyasi va jamiyatga reintegratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, ish bilan band bo'lgan sobiq mahkumlarga kichik huquqbuzarliklar uchun ham yaxshiroq munosabatda bo'linadi. Ya'ni, shaxs ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va faol faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u ko'proq ishonchli va ijobiy shaxs sifatida baholanadi va qaytarilish ehtimoli kam deb qaralgani uchun kichik huquqbuzarliklarda ham unga nisbatan keskin choralar ko'rilmisligi mumkin.

Umuman olganda, ish shaxs uchun faqat iqtisodiy manba emas, balki psixologik qo'llab-quvvatlash, mas'uliyat va ijtimoiy aloqalarni saqlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

"Visbadendagi Kriminologiya Markazi (Kriminologische Zentralstelle – KrimZ) Germaniya qamoqxonalariidagi barcha ijtimoiy terapiya bo'limlaridan har yili 31 mart holati bo'yicha

ma'lumotlar to'playdigan yillik tadqiqot o'tkazadi. Hozirga qadar 23 yillik uzluksiz ma'lumot to'plangan bo'lib, bu ma'lumotlar quyidagi sohalar haqida axborot beradi:

- ta'minot holati (STU - ijtimoiy terapiya bo'limlari soni va quvvatlari);
- mahkumlarning demografik ko'rsatkichlari (yoshi, fuqaroligi, jazo muddati, jinoyat turlari, oldingi sudlanganliklar);
- muassasaviy jarayonlar (qabul qilish, ozod qilish, keyingi yordam/reabilitatsiya);
- shuningdek qamoqxona va terapiya xodimlari haqidagi ma'lumotlar (lavozimlar soni va ayollar ulushi)" [14].

Markazga ma'lumotlar har yili 31 mart holati bo'yicha yig'iladi va bu 23 yildan beri davom etib kelib, shuncha yillik ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Shu tariqa to'plangan ma'lumotlar Germaniyada bu toifadagi shaxslarni reintegratsiyalash jarayoni, ijtimoiy terapiya dasturlarining samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ijtimoiy terapiya bo'limlari soni, qancha shaxsni qabul qila olishi haqidagi ma'lumotlar asosida mahkumlarga qancha terapiya imkoniyati taqdim etilganini ko'rsatadi. Mahkumlarning demografik ko'rsatkichlari esa qayta jinoyat qayta sodir etilish xavfining darajasini va samarali choralarni tahlil qilish imkonini beradi. Muassasaviy jarayonlar haqidagi axborotlar esa, jazoni ijro etish muassasalari, terapiya tizimining faoliyatini hamda mahkumlarning reintegratsiyasini baholashda muhimdir. Qamoqxona va terapiya bo'limlari xodimlari haqidagi ma'lumotlar xodimlar tarkibi, gender balans va ish yuklari tahlili uchun zarur.

Shu tariqa, Germaniya tajribasi jazo muddatini o'tab chiqqan shaxslarning reintegratsiyalanishini tahlil qilish, samarali ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish hamda adliya tizimini takomillashtirish uchun asos yaratadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, AQShdagi qayta tarbiya dasturlari, Kanadadagi rejali dasturlar, Angliyadagi oilaviy munosabatlarni rag'batlantiruvchi dasturlar, Fransiya va Germaniyadagi profilaktik xizmatlar bu sohada turli tashkilotlar va davlat idoralarining o'zaro hamkorligi qanchalik muhim ekanini namoyon etadi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. REENTRY OF YOUNG OFFENDERS FROM THE JUSTICE SYSTEM: A Developmental Perspective / Laurence Steinberg, He Len Chung, and Michelle Little / Youth Violence Juv Justice. 2004 January 1; 2.
2. Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention. / www.ojjdp.gov / Juvenile Reentry / August 2017 / 3
3. Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention. / www.ojjdp.gov / Juvenile Reentry / August 2017 / 8
4. Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention. / www.ojjdp.gov / Juvenile Reentry / August 2017 / 8
5. Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention. / www.ojjdp.gov / Juvenile Reentry / August 2017 / 9
6. Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention. / www.ojjdp.gov / Juvenile Reentry / August 2017 / 9
7. 2025 Progress Report on the Federal Framework to Reduce Recidivism / Snapshot of Recidivism in Canada / 2025
8. Youth Perspectives on their Experience of Custody and Reintegration in Canada / Kelly E. Morton Bourgon, Kimberly Burnett, Jo-Anne Chrétien / 2008 / 31
9. Young People: The Experience of Transition from Custody to Community / Alexandra Fairfull / June 2013 / 37
10. A Lost Generation: the experiences of young people in prison / Prison Reform Trust / February 2004 / 19

11. Mesurer et comprendre les déterminants de la récidive des sortants de prison / Infostat Justice SDSE - Service statistique ministériel de la justice / Par Frédérique Cornuau et Marianne Juillard, statisticiennes à la SDSE / juil 2021 / 1
12. LES CONDITIONS DE LA RÉINSERTION SOCIOPROFESSIONNELLE DES DÉTENUS EN FRANCE / 2006 / M. Donat Decisier / 221-222
13. Herausforderungen und Chancen zur beruflichen Wiedereingliederung von Straffälligen Aktuelle Modelle und Projekte zur (Arbeitsmarkt-) Integration 24. und 25. Juni 2019 in Frankfurt / Arbeitsmarktintegration für jugendliche Straftatene / Dr. Lutz Klein / 24
14. Forens Psychiatr Psychol Kriminol (2020) Therapie bei Straffälligkeit: Zur Entwicklung der Sozialtherapie im deutschen Justizvollzug / Sonja Etzler, Matthias Moosburner, Martin Rettenberger / 95

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000